



Volume 3, Issue 3(16), 2023

# Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

**Chief Editor:**

**Sharipov Shavkat Safarovich**

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Deputy Chief Editor:**

**Sodikov Khamid Makhmudovich**

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

**Orishev Jamshid Bahodirovich**

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Members of the editorial board:**

**Ubaydullaev Sadulla**, dotsent

**Ismailov Tuychi Djabbarovich**, dotsent

**Kholmatov Pardaboy Karabaevich**, dotsent

**Umarov Rakhim Tojievich**, dotsent

**Murtazaev Melibek Zakirovich**, dotsent

**Abduraimov Sherali Saidkarimovich**, dotsent

**Taylanov Nizom**, senior teacher

**Tagaev Khojamberdi**, senior teacher

**Tugalov Farkhod Karshibayevich**, dotsent

**Alibaev Turgun Chindalievich**, PhD

**Yusupov Mukhammad Makhmudovich**, PhD

**Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich**, PhD

**Irmatov Fozil Muminovich**, PhD

**Editorial Representative:**

**Jamshid Orishev**

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK  
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

**Indexed By:**



**Published By:**

<https://phys-tech.jdpu.uz/>  
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-06-05

**MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

| <b>№</b> | <b>MUALLIFLAR/<br/>AUTHORS/ АВТОРЫ</b>                                    | <b>MAQOLA NOMI/<br/>ARTICLE TITLE/<br/>НАЗВАНИЕ СТАТЬИ</b>   | <b>SAHIFALAR/<br/>PAGES /<br/>СТРАНИЦЫ</b> |
|----------|---|--|--|
| 1        | <i>Umarov Rahim ,<br/>Yusupov Kirmon</i>                                  | <i>Sharq mutafakrlarining aqliy mehnat va tarbiya haqidagi qarashlari</i>                                  | 5-9  |
| 2        | <i>Umarov Rahim,<br/>Isoqov Shohruh</i>                                   | <i>Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni otkazish metodikasi</i>                                  | 10-14                                      |
| 3        | <i>Abduvasiyev Sardor<br/>Bahrom o'g'li</i>                               | <i>Fizika fanini o'qitishda internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari</i>                             | 15-19                                      |
| 4        | <i>Abduvasiyev Sardor<br/>Bahrom o'g'li</i>                               | <i>Fizika fanida o'quv jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanish metodikasi</i>                  | 20-23                                      |
| 5        | <i>Абдувасиев Садрор<br/>Баҳром ўғли</i>                                  | <i>Альтернативные источники энергии-перспективы их использования и развития в узбекистане</i>              | 24-27                                      |
| 6        | <i>Abduvasiyev Sardor<br/>Bahrom ugli</i>                                 | <i>Methodology for using electronic learning tools in the educational process on the subject "Physics"</i> | 28-31                                      |
| 7        | <i>Igamqulova Zilola ,<br/>Umirov Javlonbek</i>                           | <i>Oy tutilishi va uning shartlari</i>   | 32-34                                      |
| 8        | <i>Ortiqova Ozoda<br/>Sharofovna</i>                                      | <i>Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari</i>   | 35-38                                      |
| 9        | <i>Ortiqova Ozoda<br/>Sharofovna</i>                                      | <i>Jamiyat hayotida liboslarning o'rni</i>   | 39-41                                      |
| 10       | <i>Yo'ldoshev Mirjalol ,<br/>Allamuradov Husan,<br/>Rustamov Yoqubjon</i> | <i>Fotorezistorlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o'rgatish</i>                               | 42-46                                      |
| 11       | <i>Orishev Jamshid,<br/>Majidova Hurriyat</i>                             | <i>O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda media ta'limning didaktik imkoniyatlari</i>                       | 47-51                                      |
| 12       | <i>Orishev Jamshid,<br/>O'rozov Bobur</i>                                 | <i>Texnologiya fanini o'qitishda media ta'lim vositalaridan foydalanish</i>                                | 52-55                                      |
| 13       | <i>Rahimov Azizbek,<br/>Yaxshiboyevich</i>                                | <i>Savodxonlik elementlarini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida</i>                             | 56-59                                      |
| 14       | <i>Rahimov Azizbek,<br/>Parmanova Jumagul</i>                             | <i>Rassom asarlarida ayol timsoli</i>  | 60-64                                      |
| 15       | <i>Rahimov Azizbek,<br/>Normatov Shuxrat</i>                              | <i>Milliy ruxdagi ganch o'ymakorligi</i>   | 65-69                                      |
| 16       | <i>Ortiqova Ozoda,<br/>Rahmatva Shahlo</i>                                | <i>Korsetli libos tikish tarixi va rivojlanish bosqichlari</i>   | 70-73                                      |
| 17       | <i>Alqorov Qodir<br/>Xolmatovich</i>                                      | <i>o'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda fizika bilan texnika fanlari</i>               | 74-78                                      |

|    |   | <i>aloqadorligi</i>   |         |
|----|---|---|---------|
| 18 | <i>Alqorov Qodir,<br/>Yusupov Kermon</i>            | <i>Ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik muammolari</i>                               | 79-82   |
| 19 | <i>Тугалов Фарход,<br/>Мамадиёров Уралжон</i>       | <i>Физика ўқитишида талабаларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришида муаммоли таълим технологияларининг ўрни</i>    | 83-86   |
| 20 | <i>Тугалов Фарход,<br/>Беркинова Чехроза</i>        | <i>Фундаментал фанларнинг аҳамияти</i>  | 87-91   |
| 21 | <i>G`ofurova Aziza<br/>Xidirnazar qizi</i>          | <i>Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish</i>                                      | 92-95   |
| 22 | <i>Ortiqova Ozoda,<br/>Nazirova Nafisa</i>          | <i>Milliy liboslarda bezaklar va pardoz-andozlarning ishlatilishi</i>   | 96-100  |
| 23 | <i>Doniyorova Shahnoza,<br/>Urinboyeva Gulsevar</i> | <i>To’quvchilik san’ati va uning o’ziga xosligi</i>   | 101-104 |
| 24 | <i>Doniyorova Shahnoza,<br/>Urinboyeva Gulsevar</i> | <i>Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari</i> | 105-107 |

## MILLIY RUXDAGI GANCH O’YMAKORLIGI

**Rahimov Azizbek Yaxshiboyevich<sup>1</sup>, Normatov Shuxrat Farxod o’g’li<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>A.Qodiriy nomidagi JDPU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasida o’qituvchisi, <sup>2</sup>Professional ta’lim: rangtasvir (dastgohli) yo’nalishi talabasi  
[rahimovazizbek09@gmail.com](mailto:rahimovazizbek09@gmail.com)

**Annotasiya.** Sharqda, jumladan, mamlakatimiz xududida tasviriy san’at va amaliy san’at bilan uyg’un xolda rivojlangan. Davr o’tib, diniy qarashlarning o’zgarishi natijasida tasviriy bezak san’atida inson, jonzotlar tasviridan foydalanish muayyan darajada to’xtab, uning o’rniga naqqoshlikning ganch, tosh va yog’och o’ymakorligi kabi turlaridan foydalanilgan. Bu esa naqqoshlikning xamda islamiy uslublarning rivojlanishiga, ustalarning tasavvuri, dunyoqarashlari va ilm salohiyatlari-yu – tajribalari o’sib, badiiy kompozitsion jihatdan mukammal asarlar yaralishiga saba bo’lgan.

**Kalit so’zlar:** ganch, rassom, tasvir, o’yma, tosh, yog’och.

**Аннотация.** На Востоке, в том числе и на территории нашей страны, оно развивается в гармонии с изобразительным и прикладным искусством. Со временем, в результате изменения религиозных воззрений, использование образов человека и животных в изобразительном искусстве в известной мере прекратилось и уступило место различным видам живописи (ганчу, камню, резьбе по дереву). Это привело к развитию живописи и исламского стиля, росту воображения, мировоззрения и научного потенциала мастеров, созданию шедевров в плане художественной композиции.

**Ключевые слова:** гипс, живописец, роспись, резьба, камень, дерево.

**Annotation.** In the East, including in the territory of our country, it is developed in harmony with the fine arts and applied arts. Over time, as a result of changes in religious beliefs, the use of human and animal imagery in the fine arts ceased to a certain extent, and was replaced by plaster, stone, and wood carvings. This led to the development of painting and Islamic style, the growth of the imagination, worldview and scientific potential of masters, and the creation of masterpieces in terms of artistic composition.

**Keywords:** plaster, painter, painting, carving, stone, wood.

Sharqda, jumladan, mamlakatimiz xududida tasviriy san’at va amaliy san’at bilan uyg’un xolda rivojlangan. Davr o’tib, diniy qarashlarning o’zgarishi natijasida tasviriy bezak san’atida inson, jonzotlar tasviridan foydalanish muayyan darajada to’xtab, uning o’rniga naqqoshlikning ganch, tosh va yog’och o’ymakorligi kabi turlaridan foydalanilgan. Bu esa naqqoshlikning xamda islamiy uslublarning rivojlanishiga, ustalarning tasavvuri, dunyoqarashlari va ilm salohiyatlari-yu – tajribalari o’sib, badiiy kompozitsion jihatdan mukammal asarlar yaralishiga saba bo’lgan.

XIII asrda ganchkorlik juda rivojlangan. Bunga Afrosiyobda topilgan ganch o’ymakorlik ishlari misoldir. XIV-XVIII asrlarda xam binolarning ichki qismlarini bezatishda ganchkorlik san’atidan foydalanilgan. Ganchkorlikning gullab-yashnagan davri XVIII asr oxiri - XIX asr boshiga to’g’ri keladi. Bu davrda uz ishining ajoyib ustalari yetishib chiqqan. Abduraxim Noyotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Xayot Nosirov, Usta Xoji Xafiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta A’zim, Usta Omonulla, Usta Botir, Usta Ibroxim, Usta Sarfi, Usta Abdufattox va boshqa ganchkorlar o’z davrining mohir ustalaridir.

XX asr boshiga mansub ishlarda o’yma relyefli, juda mayin uslub texnikasini ko’rishimiz mumkin. Ularda rangli ganchlar, bo’yoqlar, naqsh va tasvirlar qo’llangan.

1913-1914 yillarda Buxoroda amir Axadxon tomonidan Sitorai Moxi Xosa qurildi. “U ganch uymakorligi bilan bezatilib, o’z davridagi ganch o’ymakorligining yorqin namunasi deya e’tirof etiladi. Buni, ayniqsa, “Oq uy” (mexmonxona) oyna ganch o’ymakorligida bajarilganligini ko’rish mumkin. U o’zining nozikligi, jimjimador bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta SHirin bajargan. U o’sha davrda eng ko’zga ko’ringan ganchkor ustalardan edi”. Bu davrda ganchkorlikka aloxida e’tibor qaratilgan.

1918-1920 yillarda xunarmandlar qo’mitasi, Toshkentda o’lkashunoslik, xunarmandlar tashkiloti, o’quv namunaviy ustaxonalar va xunarmandlar ishlari bo’yicha muzey tashkil etildi. Uzbekistan xunarmandlari o’z ishlari bilan 1937 yilda Parijda “San’at va texnika xozirgi kunda” nomli ko’rgazmada ishtirok etib, 2 ta “Gran pri”, 2 ta kumush va 1 ta oltin medal bilan mukofotlandilar.

Uzbekistonda o’ziga xos ganchkorlik maktablari mavjud bo’lib, shulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir. Xorazm ganchkorligida geometrik naqshlarga aloxida e’tibor beriladi. U shu jixat bilan boshqa viloyatlar ganchkorligidan ajralib turadi. Masalan, Xorazm ganchkorligida o’simliksimon naqshlarning spiral shaklda aylanma xarakatlanishi, dinamikligi yaqqol seziladi. Islimiy naqshlar ko’pincha yaxlit turunj madoxil qalampir va bodomga o’xshash tanob shakllarining takrorlanishidan hosil bo’ladi. Ba’zan turunj madoxilli tanoblar o’rniga yulduzsimon girixlar xam ishlatilgan. Islimiy naqshlarda novda juda ko’p uchraydi va bundan tashqari, marg’ula, barg, shkufta, oyul, no’xotgul, kurtak va g’unchalar ko’p qo’llaniladi.

Xiva ganchkorligining xarakterli jixatlaridan yana biri naqshlarning erkinligi, xarakatchanligi va jo’shqinligidir. Bu maktab naqqosh ustalari ko’pincha ko’k va yashil ranglardan foydalanishgan.

Buxoro ganchkorlik san’ati eng rivojlangan maskandir. Buxoro ganchkorligi

o’yma naqshlarning o’ziga xos mayinligi, jozibadorligi va boshqa jixatlari bilan ajralib turadi.

Toshkent ganchkorlik maktabi xam san’atning bu turida o’ziga xos o’rin egallaydi. U naqshlarining nozikligi, aniq simmetrik taqsimlanishi, egaligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Samarqand dunyoga mashxur qadimiy shaxarlardan biri bo’lib, u yerda ishlangan naqshlarning xar biri o’ziga xos maktabga ega. Boshqa ganchkorlik maktablarining naqshlari tuzilishi jihatidan Toshkent naqshlariga o’xshab ketadi.

O’zbekistan me’morchiligida o’ziga xos o’rin tutgan Toshkent shaxridagi Kurant binosi me’mor A. Muxamedshin boshchiligida 1947 yilda qurilgan. Bu binoni bezashda buxorolik Usta SHirin qatnashgan.

Vatanimiz me’morchilshida aloxida o’rin egallagan O’zbekistan Davlat opera va balet katta teatri 1947 yili akademik arxitektor Aleksey SHusevning loyihasi va rahbarligi ostida qurib bitkazildi. SHusev O’zbekistan viloyatlaridagi ganchkor ustalarni bir joyga yig’ib, muxim vazifani bajarish, ya’ni teatrning zallarini xar bir viloyatning o’ziga xos milliy uslubida bezash xamda bezalgan xonalar teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushushi kerakligi xaqidagi masalani qo’ydi. Buning natijasida teatrning Xiva, Termiz zallari qadimda ishlatilgan ganchkorlik uslubida ishlandi. Buxoro, Toshkent, Farg’ona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an’anasiga mos ganch o’ymakorligi bilan bezatildi.

Xar qanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch o’ymakorligi turlarini tanlash, qo’llash muxim axamiyatga eta. Kichik xonalarga mayda tekis o’yma va unga mos pardozi turi, katta mexmonxonalarga esa yirik yoyma va o’ziga xos ganch o’ymakorligi qo’llaniladi.

Ganch o’ymakorligining yirik o’yma, chuquro’yma, yassi o’yma, qirma zaminli ko’zguli o’yma, zamini rangli o’yma, chizma pardozi, panjarasimon o’yma, zanjira, xajmli o’yma turlari mavjud. Bundan tashqari, ganch uymakorligi zaminli va zaminsiz o’ymalarga bo’linadi. Ular orasida eng ko’p qo’llaniladigani yassi o’ymadir. U interyerda ko’p qo’llaniladi. Uncha katta bo’lmagan xonalarda o’ymasining chuqurligi 1-1,5 sm bo’lgan, unga xar xil pardozi turlari ishlatiladi. *O’yma* naqshlarning zamini umumiy yuzaning 30-60 foizini egallaydi. Unga joyga moslab pax pardozi, choka pardozi, lo’la yoki tabaqa pardozi beriladi. Qirma o’yilgan joylar rangli ganch qorishmasi bilan to’ldiriladi.

Ganch o’ymakorligi bino, inshootlarning tashqi va ichki tomonini bezashda qo’llaniladi. Xozirgi paytda san’atning bu turi xam zamonaviy ko’rinishda namoyon bulmoqda. Interyer dizayni rivojlanib, milliylik ruxidagi uslublarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Amaliy san’atning boshqa turlari bilan

xamoxang tarzda ganchkorlikning yangi turlari va yunalishlari kashf etilmoqda. San’atning bu yo’nalishi o’zining betakrorligi, maxobatli va jozibador ko’rinishi bilan ulug’vorlik kasb etib, kishilarda xayrat va zavq uyg’otadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O’zbekistan, 1017. - 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.-T.:O’zbekiston, 2017.-1046.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratok O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O’zbekiston, 2016. - 56 b.
4. «Ta’lim tugrisida»gi O’zbekiston Respublikasining qonuni. // Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997. — 20-29 b.
5. Xudoyberdiyev, M. (2021). “MANZARA RANGTASVIRINI” O ‘QITISHDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
6. Xudoyberdiyev, M. (2021). UMUMIY O ‘RTA TA’LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN’AT O ‘QUV FANINI O ‘QITISHNING ANAMIYATI. *Физико-технологического образования*, (5).
7. Жабборов, А. Ж., & Пардаев, Б. А. (2020). ОБУЧЕНИЕ В РАМКАХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО И ТРУДОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Научное знание современности*, (1), 19-22.
8. Pardayev, B. (2020). ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎЛЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ВА ЎҚУВ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШ. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
9. Kholmuratovich, M. K., Mardanaqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
10. Khudoynazarova, O. OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA TALABALARGA INSON PORTRETINI TASVIRLASHDA PLASTIK ANATOMIYANING NAZARIY ASOSLARI.